

**QARSHI MUHANDISLIK – IQTISODIYOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.04/30.04.2021.T.111.04 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

NAZAROV ODIL OMANQULOVICH

**TEXNIKA IXTISOSLIKLARI TALABALARIGA GIDRAVLIKA FANINI
O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH
(Texnologik mashinalar va jihozlari (neft va gaz sanoati) yo‘nalishi misolida)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnika)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Qarshi – 2024

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Nazarov Odil Omanqulovich

Texnika ixtisosliklari talabalariga gidravlika fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish (Texnologik mashinalar va jihozlari (neft va gaz sanoati) yo‘nalishi misolida).....5

Назаров Одил Оманкулович

Совершенствование методики преподавания дисциплины гидравлика для студентов технических специальностей (на примере направления технологические машины и оборудование (нефтегазовая промышленность)).....23

Nazarov Odil Omankulovich

Improvement of the methodology of teaching hydraulics to students of technical specialties (on example of the direction technological machines and equipment (oil and gas industry)).....45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works49

**QARSHI MUHANDISLIK – IQTISODIYOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.04/30.04.2021.T.111.04 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

NAZAROV ODIL OMANQULOVICH

**TEXNIKA IXTISOSLIKLARI TALABALARIGA GIDRAVLIKA FANINI
O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH
(Texnologik mashinalar va jihozlari (neft va gaz sanoati) yo‘nalishi misolida)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnika)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Qarshi – 2024

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Ped5105 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning web-sahifasida (www.qmii.uz) va "Ziyonet" axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Eshev Sobir Samatovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Turdiyev Shoxrux Razzoqovich
pedagogika fanlari doktori, dotsent

Norqulov Bahodir Musulmanovich
texnika fanlari falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Jizzax politexnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi muhandislik - iqtisodiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.04/30.04.2021.T.111.04 raqamli Ilmiy kengash asosida tashkil etilgan bir martalik Ilmiy kengashning 2024-yil "28" 05 soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 180100, Qarshi sh., Mustaqillik shoh ko'chasi, 225-uy. Tel.: (99875) 221-09-23, faks: (+99875) 224-13-95; e-mail: qmii@qmii.uz). Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti 1-239-xona.

Dissertatsiya bilan Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining axborot-resurs markazida tanishish mumkin 103 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180100, Qarshi sh., Mustaqillik shoh ko'chasi, 225-uy. Tel.: (99875) 221-09-23, faks: (+99875) 224-13-95; e-mail: qmii@qmii.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "16" 05 da tarqatildi
(2024-yil "16" 05 dagi 3 - raqamli reyestr bayonnomasi).



Sh.O'.Nurullayeva
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
ilmiy kengash raisi o'rinbosari,
p.f.d., professor

A.N.Xazratov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash kotibi,
p.f.d., dotsent

Sh.R.Turdiyev
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi,
p.f.d., dotsent

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda innovatsion faoliyatni rivojlantirish va rag‘batlantirish maqsadida amalga oshirilayotgan tadbirlar, jumladan Xalqaro intellektual mulk tashkiloti tomonidan tashkil etiladigan Davlatlar innovatsion indeksi (Global Innovation Index, GII) indikatorlariga muvofiq muhandislar tayyorgarligiga ham ma’lum bir me’yorlar belgilangan. Zero, texnika va texnologiyalar taraqqiyoti orqali innovatsion faoliyatni amalga oshirish, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, moddiy sohadagi mahsulotlar ishlab chiqarishda progressiv o‘zgarishlarni ta’minlash, milliy mahsulotni jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirish, qolaversa, dunyo mamlakatlaridagi suv taqchilligi muammosi bilan shug‘ullanish bevosita muhandislar tayyorlash muammosi bilan bog‘liqdir.

Dunyo mamlakatlarida muhandislik ta’limiga bo‘lgan alohida e’tibor xalqaro muhandislik pedagogikasi uyushmasi (Internationale Gesellschaft für Ingenieurpädagogik, IGIP) ning tashkil etilishiga asos bo‘ldi. Ushbu tashkilot zimmasiga texnika oliy ta’lim muassasalari uchun o‘qitishning innovatsion metodikalarini ishlab chiqish, muntazam ravishdada yuqori raqobatbardosh muhandis kadrlarni tayyorlash jarayoniga samarali ta’lim texnologiyalarni tatbiq etish va talabalarning kasbiy kompetentligini oshirishga doir innovatsion usullarni ishlab vazifasi yuklatildi. Bugungi kunda iqtisodiy taraqqiyotning neft va gaz sanoati bilan chambarchas aloqadorligini inobatga olgan holda ushbu soha mutaxassislarini, xususan, muhandislarini tayyorlash, ularning kasbiy kompetentligini oshirishga e’tibor qaratish dolzarb bo‘lmoqda.

Mamlakatimizda ham zamonaviy fan, texnika va texnologiyalarni rivojlantirish hamda zamonaviy ishlab chiqarish sohasida faoliyat yuritishga qodir intellektual va professional tayyorgarlikka ega muhandislarni tayyorlashga alohida ahamiyat berilib salmoqli ishlar olib borilmoqda. Oliy ta’lim sohasini rivojlantirish, ushbu sohani mazmunan boyitish, metodik ta’minotini takomillashtirish maqsadida ta’lim sohasi mutaxassislari va tadqiqotchilari zimmasiga “milliy elektron ta’lim resurslari yaratilishini jadallashtirish, xorijiy elektron ta’lim resurslarini tarjima qilish ishlarini tashkil etish, ta’lim jarayonida elektron resurslar salmog‘ini bosqichma-bosqich oshirib borish, elektron o‘quv adabiyotlar yaratish, ularni mobil qurilmalarga yuklab olish maqsadida kutubxonalarda QR-kod yordamida elektron resurslar haqidagi axborotlarni joylashtirish tizimini yaratish” kabi vazifalar yuklatildi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son 2022-2026-yillarda mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalar hamda Innovatsion rivojlanish vazirligining asosiy faoliyat yo‘nalishlaridan ta’lim tizimida innovatsiyalarni ishlab chiqishni ta’minlash kabi belgilangan ustuvor vazifalari oliy ta’lim tizimida raqobatbardosh muhandis kadrlarni tayyorlash zaruriyatini taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son, 2017-yil 20 - apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-son, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston

Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son farmonlari¹, 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-3775-son qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti ma'lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy va ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamiz ta'lim tizimiga texnika fanlarini o'qitish metodikasi masalalari bilan R.X.Jo'rayev, F.M.Zokirova, Q.Sh.Tursunov, N.I.Taylakov, U.Yu.Yuldashev, Sh.R.Turdiyev, H.Ravshanov va boshqalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida asosli ravishda ko'rsatib berilgan. Amaliy bilimlarni shakllantirish ustida I.M.Nizomov tadqiqot ishlarini olib borganlar.

MDH olimlaridan texnika ixtisosliklari talabalarida umumtexnika fanlarini o'qitish orqali tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishga N.I.Mokriskayaning dissertatsiya tadqiqot ishi bag'ishlangan. Texnika ixtisosliklarida umumtexnika fanlarini o'qitish metodikasi ustida A.Ye.Ayzenson, M.M.Gorunova, E.V.Maykova, R.V.Meyerlar va L.D.Shabashovalar tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Xorijiy davlatlar olimlari J.Bishop, K.Elizabeth, A.I.Kravchenko, C.K.Pathak, R.S.Yadav, S.Hollyforde hamda S.Whiddetlarning ilmiy izlanishlarida texnik kompetentlikni shakllantirishning pedagogik jihatlari ochib berilgan.

Tadqiqot ishi muammosiga oid ilmiy tadqiqotlar va ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalarida texnika fanlarini o'qitish xususan, talabalarda gidravlikani o'qitish metodikasi orqali amaliy bilimlarni shakllantirish, ularni zamonaviy yondashuvlar asosida rivojlantirish imkoniyatlari ustida ilmiy izlanishlar olib borish tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqot ishi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi (2021-yil 10-iyundagi G va GI/40-20 "Nasos stansiyalari bosim quvurlarini gidravlik hisoblash usullarini takomillashtirish asosida ishlab chiqish" mavzusidagi xo'jalik shartnoma)ga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi talabalarni gidravlik qurilmalaridan foydalanish va ularga xizmat ko'rsatishga oid bilimlari, ko'nikmalarini shakllantirish shartlarini nazariy va metodik jihatdan takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

gidravlika fanini tarixiylik nuqtai nazaridan o'rganish hamda uni o'rganishning mazmuni, tendensiyalari va dasturlarining nazariy aspektlarini ochib berish;

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son. <https://lex.uz/docs/-4545884>

texnika ixtisosligi talabalarining faoliyatlari nuqtai nazaridan zarur bilim, ko'nikmalarini mazmun-mohiyatiga bog'liq tarzda gidravlika fanini o'qitishning tarkibiy tuzilmasini xos tomonlarini ochib berish hamda jarayonning takomillashtirilgan modelini ishlab chiqish;

talabalarni tanlangan ixtisoslik nuqtai nazaridan gidravlika fanini o'zlashtirish samaradorligini oshirishga qaratilgan didaktik shartlarni aniqlash hamda metodikasini takomillashtirish;

gidravlika fanini o'zlashtirish va o'rganish davomida talabalarda zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanganlik darajalarini pedagogik eksperiment orqali diagnostik jihatdan aniqlashtirish.

Tadqiqotning obykti sifatida texnika ixtisosliklari talabalarini gidravlika fani orqali amaliy faoliyatga tayyorlash jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini talabalarni tanlangan ixtisosliklari talabidan kelib chiqqan holda gidravlika fanini o'qitish orqali amaliy faoliyatga tayyorlashning mazmuni, shakli, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Psixologik, pedagogik, metodik va texnikaga oid tadqiqot mavzusi bilan bog'liq adabiyotlar tahlil qilish; tadqiqot olib borilayotgan muammo yuzasidan olib borilgan dissertatsion tadqiqot ishlarini o'rganib chiqish; metodikani modellashtirish hamda takomillashtirish; kuzatish, suhbatlar o'tkazish, pedagog va talabalardan anketa-so'rovnomalarini o'tkazish; taklif etilayotgan metodikani tajriba-sinov orqali tekshirib ko'rish va uni matematik statistik tahlil qilish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

gidravlika faniga doir nazariy va amaliy qarashlar ilm-fan taraqqiyoti bilan bog'liq gidrodinamik hodisalardan texnik sohalarda foydalanishga doir empirik tajribalar gidravlik, gazodinamik, aerodinamik tizimlardagi texnologik jarayon bosqichlarining tizimli tahlili asosida aniqlashtirilgan;

talabalarni muhandislik faoliyatiga tayyorlashda gidravlika fanini o'qitishning tarkibiy tuzilmalari hamda jarayon modelining mazmunli va texnologik-jarayoniy bloklari Gidravlika hamda Suyuqlik va gaz mexanikasi fanlari mazmuni o'quv materiallarini modellashtirish hamda akademik ta'lim shakllarini integratsiyalash orqali takomillashtirilgan;

talabalarni tanlangan ixtisoslik nuqtai nazaridan gidravlika fanini o'zlashtirish samaradorligini oshirishga qaratilgan didaktik shartlar oliy texnik ta'limni takomillashtirishning fundamentallashtirish, individuallashtirish kabi yo'nalishlarida fanlarni yaxlit siklga sintez qilish imkonini beradigan muhandislik g'oyalari, metodik shart-sharoitlar va didaktik asoslarning mavjudligi shartlari ustuvorligini ta'minlash orqali takomillashtirilgan;

gidravlika fanini innovatsion asosda o'qitish metodikasi fanning Hidrostatika, Gidrodinamika, Gidravlik mashinalar kabi modullarini o'qitishda foydalaniladigan texnik ta'limning innovatsion texnologiyalarini talabalarning intellektual sezgirligi, intellektual harakatchanligi va tafakkuri moslashuvchanligini intensivlashtirishini ta'minlash orqali takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

gidravlika fanini o'qitishning metodik ta'minotini takomillashtirishga doir "Kanallarning gidravlik hisobini aniqlash dasturi" nomli dasturiy ta'minot ishlab chiqildi (O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining № DGU 10216 raqamli mualliflik guvohnomasi. –Toshkent, 2021).

Gidravlika fanidan laboratoriya mashg'ulotlarini takomillashtirishga doir "Gidravlika" fanidan laboratoriya ishlarini bajarish uchun" nomli elektron modul dasturishlab chiqildi (O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi. № DGU 14199 raqamli mualliflik guvohnomasi. –Toshkent, 2022).

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot davomida foydalanilgan turli yondashuv, metod va nazariy axborotlarning asosli ilmiy manbalardan olinganligi, taqdim etilayotgan metodikaning ilmiy tomondan asoslanganligi hamda ularni samaradorligi tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va ularni o'tkazish orqali aniqlanganligi bilan hamda olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, talabalarda shakllantirilayotgan bilim, ko'nikma va malakalarning tarkibi hamda mazmuni maqsad sari yo'naltirilganligi bilan aniqlanib, gidravlika fanini o'zlashtirish mantig'i, uning bosqichlari, shakllari va metodlari bilimlarni tadbiq etilish doirasining mazmun-mohiyatiga xos jihatlari bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish yuzasidan tadqiqot muammosiga oid materiallar ta'limni amalga oshirishda, mazkur metodik tavsiyanomalarning taqdim etilgan fan dasturlaridan chetga chiqmagan holda ishchi dasturlarda o'z aksini topganligi, muallif tomonidan o'quv jarayoniga taqdim etilgan o'quv qo'llanmasining yaratilganligi va undan amaliyotda foydalanilayotganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Texnika ixtisosligi talabalariga gidravlikani o'qitish metodikasini takomillashtirishga doir qo'lga kiritilgan ilmiy natijalar asosida:

gidravlika faniga doir nazariy va amaliy qarashlar ilm-fan taraqqiyoti bilan bog'liq gidrodinamik hodisalardan texnik sohalarda foydalanishga doir empirik tajribalar gidravlik, gazodinamik, aerodinamik tizimlardagi texnologik jarayon bosqichlarining tizimli tahlili asosida aniqlashtirilgan ma'lumotlardan 2018-2020 yillarda bajarilgan "O'zbekistonning sug'oriladigan hududlarida GAT-texnologiyasini qo'llagan holda suv berish va suv uzatish tizimining gidrologik va gidrokimy monitoring ilmiy asosi va metodologiyasini ishlab chiqish" mavzusidagi loyihani bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot institutining 2023-yil 17-maydagi 01/207-son ma'lumotnomasi). Natijada texnika fanlarini o'qitishda talabalarda innovatsion muhandislik faoliyatiga bo'lgan qobiliyatlarini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirishga erishilgan;

talabalarni muhandislik faoliyatiga tayyorlashda gidravlika fanini o'qitishning tarkibiy tuzilmalari hamda jarayon modelining mazmunli va texnologik-jarayoniy bloklari Gidravlika hamda Suyuqlik va gaz mexanikasi fanlari mazmuni o'quv

materiallarini modellashtirish hamda akademik ta'lim shakllarini integratsiyalash orqali takomillashtirilganligiga doir xulosalardan "Umumiy va yer osti gidravlikasi" nomli o'quv qo'llanmasini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 25-noyabrdagi 388-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan 388-155-raqamli guvohnoma). Natijada, oliy ta'lim muassasalarida gidravlika fanini o'qitish jarayonining metodik ta'minoti zamonaviy ma'lumotlar bilan boyitilgan;

talabalarni tanlangan ixtisoslik nuqtai nazaridan gidravlika fanini o'zlashtirish samaradorligini oshirishga qaratilgan didaktik shartlar oliy texnik ta'limni takomillashtirishning fundamentallashtirish, individuallashtirish kabi yo'nalishlarida fanlarni yaxlit siklga sintez qilish imkonini beradigan muhandislik g'oyalari, metodik shart-sharoitlar va didaktik asoslarning mavjudligi shartlari ustuvorligini ta'minlash orqali takomillashtirilganligiga oid takliflardan 2018-2020 yillarda bajarilgan "Nasos stansiyalarida sifonli suv o'tkazish vakuum uzish gidravlik moslamasini ekspluatatsiya qilishning yangi energiya samarador texnologiyalarini ishlab chiqish" mavzusidagi loyihani bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot institutining 2023-yil 22-maydagi 01/219-son ma'lumotnomasi). Mazkur model talabalarga gidravlika fanini o'rgatish asosida ularning motivatsiya darajalari, bilim va ko'nikmalarni shakllanish samaradorligini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro, 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazildi.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi yuzasidan jami 19 ta ilmiy-uslubiy ishlar chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 3 tasi xorijiy, 4 tasi respublika jurnallarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 153 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi keltirilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning ish bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmiga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Texnika ixtisosliklari talabalarida gidravlika fanini o'qitishning nazariy asoslari**" deb nomlanib, unda dastlab tahsil jarayonida ta'limda texnika ixtisosliklari talabalarida gidravlika fanini o'qitishning

o'zni hamda ahamiyati tavsifiy mohiyati ochib berilgan.

Muhandislik ta'limi butun ta'lim tizimining mustaqil tarmog'i sifatida jamiyatning rivojlanishi va birinchi navbatda, iqtisodiyotning taraqqiyoti natijasida yuzaga keldi. Ma'lumki, ilm-fan, texnika va muhandislik ta'limining rivojlanishi uzviy bog'liq bo'lib, ushbu aloqa ilmiy-texnik taraqqiyot va iqtisodiyotni rivojlantirishning doimiy jadallashuvini ta'minlaydi.

Zamonaviy muhandis kasbiy tayyorgarligiga qo'yilayotgan talablar ilm-fan, texnika va ishlab chiqarishdagi o'zgarishlarni aks ettiradi. Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida muhandisga qo'yiladigan talablarni baholash uchun jamiyatni rivojlantirishning zamonaviy davrini belgilovchi asosiy omillar va tendensiyalarni aniqlab olish zarur. Zamonaviy muhandisga va muhandislik ta'limiga to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita qo'yiladigan talablarga nafaqat texnologik va ilmiy-texnik omillar, balki iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy omillar ham ta'sir ko'rsatadi.

Rivojlanishning zamonaviy bosqichini tavsiflovchi eng muhim omillar sifatida quyidagilarni keltirib o'tish mumkin:

oliy ma'lumotli xodimlarning samarali ishlashini talab qiladigan yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarning o'sishi;

ilmiy va texnik ma'lumotlarning ikki barobar oshishiga olib keladigan va mutaxassisdan mustaqil ta'lim olish tarbiyalash qobiliyati va ko'nikmalarini, uzluksiz ta'lim va malaka oshirish tizimiga qo'shilishni talab qiluvchi axborotning keskin ortishi;

uskunalarning ma'naviy eskirishini keltirib chiqaradigan va mutaxassisdan yaxshi fundamental tayyorgarligini va yangi texnologiyalarni tezda o'rganish qobiliyatini talab qiluvchi texnologiyalarning o'zgaruvchanligi;

ochiq manbalardan foydalanishning tugashi va yangi konlarni o'zlashtirish zarurati tufayli resurslarni ta'minlash bilan bog'liq vaziyatning yanada keskinlashishi;


ham jismoniy, ham aqliy mehnatni avtomatlashtirishga olib keladigan kompyuterlashtirish va buning natijasida ijodiy algoritmlashmagan faoliyatning qadr-qimmati va ushbu faoliyatni amalga oshirishga qodir bo'lgan mutaxassislarga talabning oshishi.

Shu munosabat bilan, ishlab chiqarish ishtirokchilari va birinchi navbatda, ilmiy xodimlar va muhandislarning malakasi muhim ahamiyatga ega bo'lib, aynan ular iqtisodiyotning rivojlanish darajasini hamda uning istiqbollari belgilaydi. Ishlab chiqarishni malakali kadrlar bilan ta'minlashda eng muhim talablar oliy ta'lim tizimiga tegishli hisoblanadi.


"Gidravlika" atamasida turli suyuqliklarning asosiy obyekt sifatida o'rganilishi yoki ishlatilishining qo'llanilishi ostida birlashtirilishi tushuniladi. Inson gidravlik hodisalardan uzoq davrlardan beri foydalanib keladi. Ammo ular shu qadar murakkab va xilma-xilki, rivojlangan nazariyadan foydalanmasdan turib, faqat empirik yo'l bilan gidravlik texnologiyalarni rivojlantirish juda qiyin kechadi.

Gidravlika sohasidagi birinchi ilmiy ish miloddan avvalgi taxminan 250-yillarda yozilgan Arximedning "Suzuvchi jismlar to'g'risida"gi traktati bo'lib, unda qadimning eng buyuk olimi suyuqlikning o'ziga botirilgan jismga bosimi to'g'risidagi qonunni yozgan. Hozirgi vaqtda kuchli nazariy qurilma yaratilib, u

suyuqlikning ochiq kanallar, turli quvurlar, shu jumladan, qon aylanish tizimi orqali oqishidan to neftning yer osti plastlari orqali filtrlanishigacha turli gidravlik hodisalarni tavsiflash va hisoblash imkonini beradi.



1-rasm. Paskal qonuni



2-rasm. Bernulli tenglamasi

Takomillashtirish zarurligiga qaramasdan, insonlar tomonidan qo'llaniladigan gidravlik texnikalar XVII asrda Paskal (1-rasm) va XVIII asrda Bernulli qonunlari (2-rasm) kashf etilguniga qadar, qadimgi Misr va Rim davridan beri deyarli o'zgarmay kelgan.

Texnologiyani rivojlantirish jarayonida bir xil matematik qurilma nafaqat suyuqlikda sodir bo'lgan jarayonlarni, balki muayyan sharoitlarda va gazlarda sodir bo'lgan hodisalarni ham tasvirlashi aniqlandi. Demak, aerostatik uchish apparatlari (aerostatlar va dirijabllar)ning ko'tarish kuchi qiymati suyuqlikka botirilgan jismlar uchun tuzilgan Arximed qonuni bilan aniqlanadi. Tovush tezligidan past parvozda samolyot qanotining ko'tarish kuchi qiymatini hisoblash esa suyuqlik uchun olingan Bernulli tenglamalari asosida amalga oshiriladi. Gidravlik hodisalar tavsiflarining matematik apparati kutilmagan sohalarida qo'llaniladi. Kumulyativ oqimning zirh bilan o'zaro ta'sirini o'rganishda, zirhli po'lat modeli sifatida ma'lum xususiyatlarga ega bo'lgan siqilmaydigan suyuqlik qabul qilinganda eng munosib natijalar qo'lga kiritildi.

Gidravlik qurilmalarning afzalliklari ularning turli texnika sohalarida qo'llanilishiga olib keldi. Gidravlik qurilmalar transport vositalarida keng va juda samarali qo'llanila boshlandi. Gidromuftalar yoki gidrotransformatorlarga ega gidromexanik transmissiyalarni, tormozlarning gidravlik uzatmasi va gidravlik amortizatorlarni qo'llash evaziga kuchli dvigatellarga ega katta yuk tashish qobiliyatiga ega zamonaviy yuqori tezlikdagi transpirt vositalarini yaratish mumkin bo'ldi.

Bugungi hayotda gidravlik qurilmalar va tizimlardan keng foydalanish, birinchi navbatda, katta miqdordagi suyuqliklarni manipulyatsiya qilish zarurati bilan bog'liq. Sug'orish va kemalar uchun kanallarini yotqizish, gidroelektrostansiyalar, shlyuzlar, port inshootlarini qurishda gidravlika qonunlarini bilish zarur. Magistral neft quvurlari, suv quvurlari va kanalizatsiya tarmoqlarini to'g'ri loyihalash katta iqtisodiy samara beradi. Hatto nisbatan kichik miqdordagi suyuqlikni nasos bilan

to'ldirish tizimlari, masalan, mashinaga yoqilg'i quyish yoki dvigatellarga yoqilg'i yetkazib berish gidravlika qonunlariga asoslangan holda ehtiyotkorlik bilan hisoblashni talab qiladi.

Alohida guruhga suyuqlik oraliq energiya tashuvchisi sifatida ishlatiladigan gidravlik tizimlar va qurilmalar kiritish lozim. Suyuqlikning siqilmaslik xususiyatiga tayanib, suyuqlik yuqori bosim ostida mexanik harakatlarni amalga oshiradigan qurilmalarni yaratish mumkin bo'ladi. Zamonaviy texnologiyada 30–50 MPa (300–500 kg/sm²)ga qadar bosim ostida ishlaydigan gidravlik qurilmalar qo'llaniladi. Bu ixcham va samarali gidravlik mashinalar va mexanizmlarni yaratishga imkon beradi. Misol uchun, 500 kN (50 t)li kuchni 30 MPa bosimida ishlab chiqaruvchi gidravlik silindrning diametri faqat 145 mm bo'ladi.

Gidravlik qurilmalarning afzalliklari ularning turli texnika sohalarida qo'llanilishiga olib keldi. Gidravlik qurilmalar transport vositalarida keng va juda samarali qo'llanila boshlandi. Gidromuftalar yoki gidrotransformatorlarga ega gidromexanik transmissiyalarni, tormozlarning gidravlik uzatmasi (3-rasm) va gidravlik amortizatorlarni (4-rasm) qo'llash evaziga kuchli dvigatellarga ega katta yuk tashish qobiliyatiga ega zamonaviy yuqori tezlikdagi transport vositalarini yaratish mumkin bo'ldi.



3-rasm. Tormozli mexanizmlar-ning gidravlik uzatmalari



4-rasm. Gidravlik amortizatorlar

Taqdim etilgan shart-sharoitlarni hisobga olgan holda, har qanday soha mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligi sifati uchta asosiy tugunning haqiqiyliги darajasiga bog'liq. Bular: ta'lim maqsadlari (nima uchun o'rgatish kerak), ta'lim mazmuni (nimani o'rgatish kerak) va ta'lim jarayonini tashkil etish tamoyillari (qanday o'qitish kerak).

Gidravlik qurilmalar va tizimlarni ishlab chiqish va tadqiq qilish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan mutaxassisliklar uchun nazariy masalalarni ko'rib chiqishda foydalaniladigan matematik apparat texnika ixtisosliklarining an'anaviy matematika kursi doirasi bilan cheklanishi aniqlandi.

Texnika ixtisosliklari gidravlika fanining mazmunli qismini shakllantirish maqsadida zamonaviy ko'p maqsadli gusenitsali va g'ildirakli mashinalarda gidravlik qurilmalardan foydalanish tahlili o'tkazilib, uning asosida ushbu mutaxassislar uchun gidravlika sohasidagi zarur amaliy kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar doirasi belgilandi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Texnika ixtisosliklarida gidravlikani o‘qitish metodikasini takomillashtirish**” deb nomlangan. Ushbu bobda texnika ixtisosligi talabalariga gidravlika fanini o‘qitish jarayonini modellashtirish muammolari tahlil qilingan va takomillashtirilgan model ishlab chiqilgan, gidravlikadan o‘quv materiallarini taqdim etish hamda ushbu jarayonda elektron o‘quv metodik majmualardan foydalanish yo‘llari ishlab chiqilgan.

“Gidravlika” fanini o‘qitishdan maqsad talabalarga gidravlikaning asosiy qonunlari, ko‘p maqsadli gusenitsali va g‘ildirakli mashinalar, texnik xizmat vositalarining tizimlari, uzellari va agregatlarida ishlatiladigan gidravlik mashinalar va apparatlarning tuzilishi va ishlashining nazariy asoslari haqida bilimlar berishdan iborat bo‘lmog‘i lozim.

Fanni o‘rganish natijasida talabalar:

quyidagilar haqida tasavvurga ega bo‘lishi kerak: texnika obyektlarida ishlatiladigan gidravlik tizimlar va qurilmalarning ishlash tamoyillari, texnik imkoniyatlari, afzalliklari va kamchiliklari.

Quyidagilarni bilishi kerak: gidravlikaning asosiy qonunlari, ularni gidravlik qurilmalarni hisoblash uchun qo‘llash usullari; o‘rganilayotgan uskunalarga o‘rnatilgan gidravlik mashinalar va qurilmalarning tuzilishi va ta’sirining nazariy asoslari.

Quyidagilarga qodir bo‘lishi kerak: gidravlik sxemalarni o‘qish, gidravlik tizimlarning quvurlarini hisoblash, berilgan xususiyatlarga muvofiq nasoslarni tanlash.

Talabalarning nazariy va amaliy tayyorgarligi tizimida pedagogik jarayonda uchta o‘zaro ta’sir qiluvchi komponentdan iborat:

bo‘lajak muhandisning amaliy tayyorgarligida nazariy va amaliy bilimlardan foydalanishga yo‘naltirilganligini shakllantirish;

gidravlika fanidan maxsus bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish;

metodik bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish;

Ushbu ma’lumotlar bizning modelimizning maqsadli blokini tashkil qiladi, ular asosida biz talabalarning o‘quv jarayonini qo‘llab - quvvatlash uchun universal zamonaviy didaktik vosita sifatida nazariy va amaliy bilimlarini rivojlantirish uchun bo‘lajak muhandislarni tayyorlash mazmunini tanladik.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz bo‘lajak muhandislarga gidravlika fanini o‘qitish asosida nazariy va amaliy bilimlarini rivojlantirishning didaktik modelini taklif etdik.

Mazkur model to‘rtta o‘zaro bog‘langan komponentlardan iborat bo‘ldi: maqsad, mazmunli, texnologik-jarayoniy va diagnostik natijaviy (5-rasm).

Maqsad komponenti: ijtimoiy buyurtma, davlat ta’lim standartlari malaka talablari, ta’lim maqsadlari, kasbiy faoliyatga tayyorlash, nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirish, texnik tafakkurni shakllantirishni o‘z ichiga oladi. Modelda talabalarning gidravlik fanidan nazariy va amaliy bilimlarini rivojlantirishni nazarda tutiladi.

Mazmunli komponenti: Bilimlar integratsiyalanuvchi fanlar gidravlika va suyuqlik va gaz mexanikasi, tamoyillar, funksiyalar, shakllar, metodlar vositalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu komponent talabalarni gidravlika fanidan ta’lim jarayonida

talabalarining nazariy va amaliy bilimlarini rivojlantirishni nazariy jihatdan asoslaydi.

Texnologik-jarayoniy komponenti: gidravlika fani tarkibi, amaliy bilim va akademik shakllardan tashkil topgan. Bunda gidravlika fanini o'qitish amaliyoti jarayonlarida amalga oshiriladi. Mazkur komponent gidravlika fanidan ta'lim jarayonini to'liq o'zida mujassamlashtiradi.

Diagnostik-natijaviy komponent: pedagogik tajriba-sinov bosqichlari, baholash mezonlari, tayyorgarlik darajalari va natijani qamrab olgan. Mazkur komponent yuqorida keltirilgan uchta komponentni to'g'ri amalga oshirilganligini tasdiqlaydi.

Shuni ta'kidlash lozimki, ishlab chiqilgan didaktik model metodologik yondashuvlar, tamoyillar va funksiyalarni hisobga olgan holda uzviy algoritmik ketma-ketlikni saqlash natijasida ishlab chiqilgan bo'lib nafaqat texnika ixtisosliklari talabalariga gidravlika fanini o'qitishda, balki boshqa yo'nalishlarda ham yuqori samaradorlikka erishish mumkinligini bashoratlaydi. Didaktik model maqsaddan natijaga yo'nalgan uzluksiz tizim sifatida qaralsa bo'lajak muhandislarni tayyorlashda amalga oshirilgan algoritmik ketma-ketlikni izchil amalga oshirilishini talab qiladi. Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan modelning samaradorligini pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari tasdiqlaydi.


Talabalarni "Gidravlika" fanining taqdim etilayotgan dasturlari bo'yicha o'qitish ularda amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat asosiy maqsadga erishishning zarur shartidir. "Gidravlika" fanini o'qitish doirasida o'quv materiallarini yetkazish, talabalar o'quv faoliyati va mashg'ulotlarni tashkil etishga qaratilgan yondashuvlarning birligi kuzatiladi.

Gidravlika loyihasining birinchi bobida ko'rib chiqilgan asosiy tamoyillarga amal qilamiz. "Gidravlika" o'quv dasturini ishlab chiqishda ushbu tamoyillardan eng muhimlari quyidagilar bo'lishi mumkin: onglilik va faollik tamoyili; tizimlilik va izchillik tamoyili; mavjudlik tamoyili; puxtalik tamoyili; ko'rgazmalilik tamoyili; nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi tamoyili. Gidravlika fanining "Gidrostatika" va "Gidromashinar" bo'limlari bo'yicha ma'ruza mashg'ulotlarini tashkil qilishda "Aqliy hujum" va grafik organayzerlardan "Klaster", "WIH" modeli, SWOT tahlil, "Zinama zina", "To'rt pog'onali" metodlardan foydalanildi.

"To'rt pog'onali" metod - amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayonining to'rt pog'ona doirasida kechadigan metodidir. Bu metod ta'lim oluvchilarga bir xilda takrorlanadigan bilim va ko'nikmalarini tez va mukammal o'zlashtirib olishlariga yordam beradi. "To'rt pog'onali" metod qo'llanilganda, ta'lim oluvchilar iloji boricha oddiy operatsiyalar bilan tanishtiriladi, so'ng uni takrorlaydilar va to mukammal o'zlashtirmaguncha mashq qiladilar. Ushbu metod quyidagi bosqichlardan iborat: *tushuntirish; nima qilish kerakligini ko'rsatib berish; ko'rsatilgan tarzda qaytarish; mashq qilish.*


Muhandis-pedagog faoliyati: tushuntirish; ko'rsatib berish; xatolarni tuzatish; baholash.

Talaba faoliyati: tinglash; kuzatish; takrorlash; mashq qilish.




5-rasm. Talabalarda gidravlikaga oid nazariy, amaliy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish hamda rivojlantirish modeli

“Tushuntirish” bosqichida talabaga oddiy tafakkur jarayoni bosqichini tushuntirib beradi.




6-rasm. “Tushuntirish”

“Nima qilish kerakligini tushuntirib berish” bosqichida talabalar mavzuning asosiy g‘oyasini idrok etgan holda topshiriqni qanday bajarish kerakligini amalda ko‘rsatib beradi.




7-rasm. “Nima qilish kerakligini tushuntirib berish”

“O‘z nomi bilan ataladi” Uchinchi bosqichda talaba ish harakatlarini takrorlaydi. O‘zlari bajarayotgan harakatlar yuzasidan fikrini bildirib, xatolarini to‘g‘rilab boradi.



8-rasm. “O‘z nomi bilan ataladi”

“**Mashq qilish**” bosqichida talabalar ish amallarini mukammal o‘zlashtirib, uni mustaqil bajaradilar.



9-rasm. “Mashq qilish”

Talabalarning o‘zlashtirgan muayyan mavzu yuzasidan bilim, ko‘nikmalarini amaliy mashg‘ulotlar davomida yanada mustahkamlab borish maqsadga muvofiq. Bunda talabalarning “Gidravlika” fanini o‘zlashtirish uchun ko‘proq mulohaza yuritishga undaydigan faol metodlardan foydalanish lozim.

Ta’lim tizimi bugungi kunning eng yangi texnologiyalarini qo‘llashi natijasida ta’lim sifatini yaxshilanishi bilan bir qatorda, uning uslubiy vositalari ham kundan-kunga takomillashib bormoqda. Bugunning eng qulay uslubiy vositalaridan biri bu elektron o‘quv-uslubiy majmualardir.

O‘qituvchi EO‘UMga mavzuga oid elektron ma’lumotlarni to‘liq joylashtiradi, bu esa talabalarning mavzuni o‘rganishlarini va mustaqil bilim olishni, nazorat qilishini ta’minlaydi.

Elektron o‘quv- uslubiy majmua (EO‘UM)dan ta’lim jarayonida foydalanish yutuqlari:

- mavzuga oid barcha ma’lumotlar bitta EO‘UMga jamlanligi;
- talabalar bilan teskari aloqani o‘rnatish imkoniyatining mavjudligi;
- elektron o‘quv- uslubiy majmua (EO‘UM)ning mobil varianti mavjudligi;
- talabalar o‘z bilim va ko‘nikmalarini nazorat qilish imkoniyatining mavjudligi hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan elektron o‘quv-uslubiy majmua Gidravlika fani darslarida texnika ixtisoslik talabalarning fanga qiziqishlarini oshirish, motivatsiyasini kuchaytirish, ko‘nikmalarini shakllantirishga imkoniyat yaratadi.

Bizga ma’lumki, fan dasturida taqdim etilayotgan mavzularning ba’zilari bo‘yicha taqdim etilayotgan ma’lumotlarning ko‘pligi sababli, ularni auditoriya mashg‘ulotlari davomida to‘liqligicha talabalarga yetkazib berishning imkoni bo‘lmaydi (ya’ni, vaqt yetmaydi). Buning natijasida fan dasturida taqdim etilayotgan mavzularni, talabalar tomonidan ketma-ket o‘zlashtirish jarayonida mavzular orasida bo‘shliq hosil bo‘ladi. Ushbu bo‘shliqni to‘ldirmasdan turib keyingi mavzularni o‘zlashtirish talabalarda qiyinchiliklar tug‘diradi. Ushbu muammolarni bartaraf etishga alohida e’tibor qaratganmiz.

Gidravlika fani elektron o‘quv- uslubiy majmua(EO‘UM)sida har bir mavzulari qismlar (rejalar)ga bo‘linib, taqdimotlar, mavzuga oid videolar, rasm animatsiya ko‘rinishida taqdim etilgan. Har bir reja bo‘yicha taqdim etilayotgan ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida onlayn testlardan foydalanilgan.

